

**SUV RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH JARAYONIDA VUJUDGA
KELGAN MUAMMOLAR**

Meyliyeva Shoxista Rustamovna

*Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti “Irrigatsiya va melioratsiya”
kafedrasi assistenti*

Bobojonov Nurimon Shahriyor o‘g‘li

“PT (Suv xo‘jaligi va melioratsiya)” ta‘lim yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyin barcha sohalar bo‘lgani kabi suvga, suv resurslariga bo‘lgan munosabat ham tubdan o‘zgardi. Respublikamizning mustaqilligigacha bo‘lgan davrda ko‘p yillar davomida suvdan xo‘jasizlarcha, munosib bo‘lmagan tarzda foydalanish jarayonlariga, mexanizmlariga barham berilib, suvga mulk sifatida qarash shakllandi. Bir yoqlama xo‘jalik yuritish mexanizmi ko‘pgina muammolarni keltirib chiqarganligi sababli, ularni bartaraf etish maqsadiga mo‘ljallangan dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishni talab etmoqda.

Kalit so‘zlar: suv, irrigatsiya, resurs, cho‘llanish, degrodatsiya, raqamli texnologiya.

Markaziy Osiyoda suvdan barqaror foydalanish bo‘yicha ko‘plab mamlakatlar qatnashgan loyiha doirasida amalga oshirilgan tahlillarga ko‘ra, yerlar sifatining buzilishi muammosining vujudga kelishi sabablari quyidagilardan iborat:

-yerlarga, jumladan, sug‘orilishi qiyin bo‘lgan yerdarda ham, keng miqyosdagi irrigatsiya tizimlarining rivojlantirilishi va paxta yakka hokimligi tabiiy ekotizim imkoniyatlariga sezilarli darajada talafot yetkazdi, bugungi kunda mavjud texnologiyalar yerlar sifati yomonlashishi oqibatlarini bartaraf etishga qodir emas. Natijada yer va suv resurslarining mahsuldorligi qisqardi;

-shu kunga qadar regional suv resurslarini boshqarish va umumi suv havzalariga ega davlatlarning teng foyda ko‘rishini ta’minlashning samarador mexanizmlari amaliy qo‘llanmay kelinyapti;

-o‘tish davridagi byudjet muammolarining ulkan suv xo‘jaligi infrastrukturasiga texnik xizmat ko‘rsatish va modernizasiyalashga salbiy ta’siri yerkarning unumdorligini sezilarli darajada qisqartirdi va deyarli tugab borayotgan suv resurslariga talabni orttirdi;

-kam ta’milanganlik resurslar degradasiyasiga sababchi bo‘lmoqda. Suv yetishmasligi va moliyaviy qiyinchiliklar fermerlarni o‘z iqtisodiy manfaatlarini qondirish uchun o‘z strategiyalarini qo‘llashlariga majbur qilmoqda.

Yuqoridagi ta‘kidlab o‘tilgan muammolarni hal etmay turib suv resurslaridan samarali, oqilona foydalanishni barqaror rivojlantirish mumkin emas.

Suvning tanqisligi jarayoni, yerkarning hosildorligining pasayishiga olib keladi. Qurg‘oqchil iqlim sharoitida yerlar ko‘p hollarda cho‘llanish jarayoniga o‘tib ketadi,

bunda hosildor yer sahroga aylanadi. Bu esa mamlakatning qishloq xo'jaligi, suv xo'jaligi, iqtisodiyoti jamiyki sohalariga juda yomon ta'sir qiladi deb aytish mumkin.

Markaziy Osiyo mamlakatlari tashabbusi bilan suv resurslaridan foydalanishni barqaror boshqarishni qo'llab-quvvatlash yo'li bilan suv tanqisligiga qarshi mamlakatlararo kurash dasturi ishlab chiqilgan. Respublikamizda bu borada milliy dastur yaratilgan bo'lib, uning asosiy maqsadi suvdan foydalanish boshqaruviga jalb etilgan barcha manfaatdor tomonlarning suv resurslaridan barqaror foydalanish bo'yicha hamjihatlik va bu hamkorlikni kuchaytirishdan iborat. Mazkur maqsad amalga oshsa, ekotizimlarning barqaror va yaxlitligiga erishiladi, respublikada turmush farovonligi o'sadi. Milliy dasturda qayd etilgan suv tanqisligi muammolari quyidagilarni taqozo etadi:

- mahalliy, regional va milliy miqyosda potensialni kuchaytirish;
- jamaotchilikning bu boradagi bilim va ma'lumotlarini oshirish;
- infratuzilma va bozor mexanizmlarini yaxshilash;
- mahalliy va milliy strategiyalar, rejorashtirish tizimi hamda barqaror suvdan foydalanish siyosatini integratsiyalash;
- suvni monitoringi va baholash tizimini yaxshilash;
- agrotizimlarni tiklash va suvdan foydalanish amaliyotini yaxshilash;
- suv obyektlarini saqlash va ulardan foydalanishni boshqarish;
- tabiiy resurslardan foydalanishning integratsion boshqaruvi va suv sifatini yaxshilash;

Orol dengizi qurishi oldini olish va uning salbiy oqibatlarini yumshatish.

Chuqur iqtisodiy-ijtimoiy mohiyatga ega bo'lgan "suvdan barqaror foydalanish" tushunchasi bilan suvdan ratsional va samarali foydalanish tushunchalari chambarchas bog'liq. Suvdan ratsional va samarali foydalanish tushunchalari barqaror suvdan foydalanishning tarkibiy qismlaridan sanaladi va jamiyatning barcha sohalari o'rtasida suv resurslarini optimal taqsimlanishiga imkon beradi.

Suvdan foydalanish samaradorligi iqtisodiy-ijtimoiy kategoriya, lekin ushbu tushuncha faqatgina iqtisodiy va xo'jalik ma'nolari bilan cheklanib qolmaydi. U ijtimoiy, rekreatsion va tabiatni muhofaza qilish tushunchalarini ham qamrab oladi. Suvdan foydalanishning har bir jihatiga ma'lum bir turdag'i: ijtimoiy-iqtisodiy, ekologogik samaradorlik xosdir. Agar suvdan foydalanish faqat bir jihat nuqtai nazaridan qaraladigan bo'lsa, unda faqat ma'lum bir samaradorlikka erishiladi. Bunda ma'lum bir samaradorlik suvdan foydalanishning boshqa jihatlariga zarar keltirish hisobiga amalga oshadi, boshqa jihatlarning talablari suvdan foydalanishning asosiy sharti sifatida qo'llanilmaydi.

"Suvdan barqaror foydalanish" iqtisodiy-ijtimoiy kategoriya sifatida o'z mazmun mohiyatiga suv resurslaridan foydalanishning bozor tamoyillarini va mazkur murakkab jarayonning boshqaruvini ham o'z ichiga oladi. Yuqorida aytilganlardan kelib chiqadiki, "suvdan barqaror foydalanish" iqtisodiy kategoriya bo'lib, iqtisodiy, ijtimoiy

va ekologik mazmunga ega bo‘lib, ular uzviy bog‘liqdir. Jamiyatning o‘z ehtiyojlarini qondirish maqsadida suv resurslaridan foydalanishining obyektiv zarurati bir vaqtning o‘zida tabiatga salbiy ta’sir ko‘rsatilishiga olib keladi. Bu holat bir tarafdan, suvdan xo‘jalik maqsadlarida foydalanish, moddiy ne’matlarni ishlab chiqarishni oqilona miqdorda cheklash, ikkinchi tarafdan, iste’mol qilingan resurslarni qayta ishlab chiqarilishini taqozo etadi. “Suvdan barqaror foydalanish” mazmunan ko‘p tarkibli, murakkab bo‘lib, suvdan ratsional va samarador foydalanishning tamoyilarini o‘z ichiga oladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakat iqtisodiyotining asosiy yirik tarmoqlariga moddiy negiz hisoblangan suv resurslaridan samarali foydalanishni barqaror rivojlantirishni ta’minlashning huquqiy va tashkiliy mexanizmlarini takomillashtirish bugungi kundagi eng muhim masalalardan biridir.

Hududlarda suv qonunchiligiga rioya qilmaslik, suv resurlaridan maqsadsiz va samarasiz foydalanish, jumladan noqonuniy qurilmalar qurish, shuningdek, suvni o‘zboshimchalik bilan ishlatish holatlari uchrayotganligi bu borada raqamli texnologiyalardan keng foydalanish orqali yagona nazorat tizimini joriy etish hamda vakolatli idoralar o‘rtasida hamkorlikni yanada kuchaytirishni taqozo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev Shavkat Miromonovichning 2017 yil 7 fevraldagagi “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” PF4947-sonli farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev Shavkat Miromonovichning 2017 yil 27 noyabrdagi «2018-2019 yillar davrida irrigatsiyani rivojlantirish va sug‘oriladigan yerkarning meliorativ holatini yaxshilash Davlat dasturi» to‘g‘risidagi PQ-3405 sonli qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev Shavkat Miromonovichning 2019 yil 17 iyundagi “Qishloq xo‘jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi PF-5742-son Farmoni

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev Shavkat Miromonovichning 2019 yil 25 oktabrdagi “Qishloq xo‘jaligida suv tejovchi texnologiyalarni joriy etishni rag‘batlantirish mexanizmlarini kengaytirish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi PQ 4499-sonli qarori.

5. Mamatov S.A. Tomchilatib sug‘orish tizimi (tarixi, tavsifi, afzallikkari, elementlari, loyihalash, qurish va ishga tushirish). Toshkent. Mehridaryo MCHJ. 2012. 80 b

6. Mamatov S.A. “Mevali daraxtlarni tomchilatib sug‘orish rejimi bo‘yicha tavsiyalar” Toshkent2015.
7. Litvishko, V., Litvishko, O., Myaskovskaya, T., Isaqov, V., Yusupova, M., Matveeva, L., ... & Nikulin, O. (2017). Innovations in technical and natural sciences: Monograph, Volume 4.